

TARBIYASI OG'IR BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOG FAOLIYATINING AHAMIYATI

Sanayeva Gulnora To'ychiyevna

Samarqand viloyati Kattaqurg'on tuman
MMTBga qarashli 40-umumiy o'rta
ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib, mahalliy va xorijy psixologlar va tarbiyasi og'ir bolalar sonining ko'payishini qayd etishdi. Bolalar ijtimoiylashuv, tarbiya va ta'lif jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi, o'zlarini shaxs sifatida rivojlantirishga intilmaydilar. Maqola matab davridagi bolalarni tabiyasi og'ir bolalarni tarbiyalash sabablarini o'rganish va o'qituvchilar bilan psixologlar birgalikda ota-onalarga o'quvchilarning ta'im jarayonini tashkil etishda o'z vaqtida tuzatish yordamini ko'rsatish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Delinkvent xulq-atvor, Huquqbazarlik, Kognitiv qobiliyatlar, Zararli ta'sirlar, ilmiy tasavvurlar.

Delinkvent xulq-atvor tushunchasi psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan qaralganda, voyaga yetmagan shaxsning mavjud ijtimoiy va huquqiy normalarga zid bo'lgan, jamoatchilik tartibini buzuvchi hamda qonunchilikka qarshi yo'naltirilgan xatti-harakatlarni anglatadi. Ushbu holat odatda bolalik va o'smirlik davrida psixologik beqarorlik, ijtimoiy nazoratning sustligi, oilaviy muammolar yoki noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladi.

"Delinkvent" atamasi lotincha *delinquens* so'zidan olingan bo'lib, "ayb qiluvchi", "noto'g'ri yo'ldan ketuvchi" degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha faqatgina jinoiy harakatlarni emas, balki ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lgan, lekin qonuniy jihatdan jazolanmaydigan xatti-harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, matabdan qochish, kattalarga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatish, ichkilikbozlik, o'g'rilik, tajovuzkorlik va boshqa bu kabi harakatlar delinkvent xulq-atvorga misol

bo‘lishi mumkin. Delinkvent xatti-harakatlarning yuzaga chiqishida bir qancha omillar — oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy holat, ta’lim tizimidagi muammolar, do’stlar muhitining salbiy ta’siri hamda shaxsnинг emotsiyonal va aqliy rivojlanishidagi nosog‘lom omillar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu muammoga qarshi kurashishda tizimli yondashuv, ya’ni oilaviy, maktabgacha va maktab tizimi hamkorligi, psixologik xizmatlarning faoliyati, yoshlar bilan ishlashning profilaktik va rehabilitatsion mexanizmlarini kuchaytirish zarur bo‘ladi.

Delinkvent xulq-atvorning turlari va shakllari:

O‘quvchilarda delinkvent xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab:	Mulkka zarar yetkazish shaklidagi yashirin delinkvent xulq-atvor:
◦ yomon niyatli hujumlar;	◦ kichik o‘g‘irlilik;
◦ tuhmat;	◦ bosqinchi o‘g‘irlilik;
◦ haqoratlash;	◦ firibgarlik
◦ xo‘rlash;	◦ tamagirlilik;
-ayblovlar;	◦ tovlamachilik, talonchilik;
qo‘rkitish;	◦ qalbakilashtirish;
◦ o‘zidan kichik yoshdagilar yoki tengdoshlariga nisbatan zo‘ravonlik (bullying);	◦ vandalizm, o‘t qo‘yish;
◦ mayda bezorilik;	◦ mulkni yo‘q qilish;
◦ janjallar (shu jumladan guruhli janjallar) yoki hujumlar;	◦ avtotransport va boshqa kerakli buyum, anjomlarni o‘g‘irlash kabi moddiy foyda ko‘rishga qaratilgan o‘z shaxsiy manfaati yo‘lidagi harakatlar;
◦ hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik, azoblash.	narkotiklar sotish va tarqatish.

Zamonaviy jamiyatda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, tajovuzkorlik va boshqa ijtimoiy me'yorlarga zid xatti-harakatlar dolzarb psixologik va ijtimoiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday holatlarning kelib chiqishida bir qator shaxsiy xavf omillari mavjud bo'lib, ular bolaning individualligi, emotsional holati, axloqiy qarashlari, bilim va motivatsiya darajasi bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada aynan o'quvchilarda delinkvent xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'ladigan shaxsiy xavf omillari chuqur tahlil qilinadi.

Birinchi navbatda, delinkvent xulq-atvorning psixologik ildizlaridan biri sifatida huquqbuzarliklarni ichki jihatdan oqlash va qonunga nisbatan befarq, salbiy munosabat shakllanishi ko'rsatiladi. Bunday o'quvchilar o'zlarining nojo'ya xatti-harakatlarini ijtimoiy norma deb bilishlari, jamiyat talablarini inkor etishlari mumkin. Bu esa ularning shaxsiy ijtimoiylashuv jarayonida muammolar borligidan dalolat beradi. Shuningdek, bola yoki o'smir o'z xatti-harakatlariga tanqidiy yondasha olmasligi, ya'ni o'zini kuzatish va baholash funksiyalarining rivojlanmaganligi ham xavf omili hisoblanadi. U nima qilayotgani va bu harakati qanday oqibatlarga olib kelishini chuqur anglay olmaydi, bu esa ijtimoiy javobgarlik tuyg'usining sustligini ko'rsatadi. Bu holatlarda emotsional o'zgaruvchanlik, boshqalarga nisbatan sovuqqonlik, empatiya darajasining pastligi, tez-tez kayfiyat almashuvi, g'azab, yakkalanish, norozilik kabi his-tuyg'ular kuchayadi. Bolaning ichki dunyosida begonalashuv va tushunilmaslik hissi hukmron bo'lsa, u ijtimoiy agressiya orqali o'zini namoyon etishga urinadi.

Ko'pgina delinkvent xatti-harakatlarning asosi psixik holatdagi beqarorlik, ya'ni impulsivlik, qo'zg'aluvchanlik, o'zini tuta olmaslik va kuchli stressga qarshi tura olmaslik bilan izohlanadi. Bu kabi bolalar asabiy, tez ranjiydigan, boshqalarga tajovuz bilan javob beradigan bo'lishadi. Aksariyat hollarda ular diqqat markazida bo'lishga bo'lgan ehtiyojni g'ayritabiiy yo'llar bilan qondirishga harakat qiladilar: tajovuz, masxaralash, mas'uliyatdan qochish, zarar yetkazish kabi yo'llar orqali jamiyatdan e'tibor kutadilar. Shuningdek, kognitiv (aqliy) qobiliyatlarning pastligi, bilim olishga

qiziqmaslik, maktab motivatsiyasining sustligi delinkvent xulq-atvorga zamin yaratadi. Aqliy rivojlanishdagi orqada qolish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy vaziyatlarni tushunishdagi chekllovlar bolaning muammoli ijtimoiy xatti-harakatlarini kuchaytiradi. Bu kabi holatlarda bolalar ko‘pincha maktab muhitida o‘z o‘rnini topa olmaydi va o‘zini yakkalashga yoki salbiy guruhlarga qo‘shilishga majbur bo‘ladi.

Bundan tashqari, kuchli emotsional taassurotlar izlashga moyillik, xavfli yoki sarguzashtli holatlarga intilish ham xavf omilidir. Bunday o‘quvchilar odatiy hayot tarzidan zerikkan, o‘ziga yangilik, tahdid, kuchli emotsiyalar orqali e’tibor jalb qiladigan holatlarni izlaydi. Natijada ular psixotrop moddalarni iste’mol qilish, zararli do’stlar bilan aloqa o‘rnatish kabi salbiy yo‘llarga kirib qolishlari mumkin. Yana bir muhim omil — bu zararli ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatining pastligidir. Atrof-muhit ta’siriga tez beriladigan bolalar boshqa delinkventlar bilan tez moslashib, ularning yo‘nalishiga kirib ketishi oson bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar ko‘pincha "tarbiyasi og‘ir" bolalar qatorida qaraladi. Ular bilan ishlash jarayoni murakkab, murakkabligi esa ularning hissiy beqarorligi, o‘rganishga nisbatan befarqligi, tajovuzkorligi, mактабга nisbatan salbiy motivatsiyasi bilan bog‘liqdir. Ularning darslarga bo‘lgan qiziqishi sust, o‘z xatti-harakatini anglash va nazorat qilish qobiliyati esa cheklangan bo‘ladi. Ana shunday holatlarda maktab psixologining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolog o‘quvchilarning ichki muammolarini aniqlash, xavf omillarini bartaraf etish va ular bilan individual ishlash orqali muammoni ildizidan hal etish imkoniyatiga ega. Ular bolalarning hissiy dunyosini o‘rganadi, ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Psixologning asosiy vazifasi — maktab muhitida psixologik iqlimni sog‘lomlashtirish, delinkvent xatti-harakatlarning profilaktikasi va tuzatish ishlari orqali bunday bolalarning ijtimoiylashuvini ta’minalashdir.

Maktab psixologining yondashuvi shaxsga yo‘naltirilgan, individual rejalashtirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, maktab jamoasi va ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan kompleks yondashuv delinkvent xatti-harakatlarning

oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘quvchini anglashga intilish, uni tushunish, qabul qilish va to‘g‘ri yo‘naltirish, uning shaxsiy imkoniyatlariga tayanish asosida ishslash zarur bo‘ladi. Shunday qilib, delinkvent xulq-atvorning shaxsiy xavf omillarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli psixologik-pedagogik yondashuv ijtimoiy salohiyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir bola o‘ziga xos, uning muammolari individual yondashuvni talab qiladi. Maktabdagagi ijobiy psixologik muhit esa aynan shunday yondashuvlar uchun asosiy maydon bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Psixologga u yoki bu tarbiyasi og‘ir bolaga "qandaydir tarzda ta'sir qilish" haqidagi so‘rov o‘qituvchilar va otaonalarning tez-tez so‘rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o‘quvchilari tarbiyasi og‘ir toifasiga kiradi: o‘qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyada ro‘yxatga olingan o‘sprinlar, disfunktsiyali va yolg‘iz bolalar deb ataladigan bolalar. Psixologiyada tarbiya atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko‘rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi tog‘risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida uni psixologik fanning predmeti [2] deb e’lon qilgan vaqtidan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Tarbiyaning zamonaviy tushunchasi tashqi rag‘batga reaktsiyalar to‘plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug‘atda tarbiya “tirik mavjudotga xos bolgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan ozaro ta’sirdir” [3]. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko‘rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaktsiyalar tushuniladi. [1] Bolaning tarbiyasi tug‘ilishdan boshlanadi. Uning birinchi o‘qituvchilari ota-onalar, keyin bolalar bog‘chasi tarbiyachilari va shundan keyingina - maktab o‘qituvchilari. Afsuski, ular ham alohida, ham jamoaviy ravishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Uning rivojlanishida bola bir joyda turmaydi, u oldinga siljiydi. Ota-onasidan bola oddiy taqlid orqali buni qanday qilishni organadi, nima mumkin va nima mumkin emas. Bolaligida o‘z farzandiga yomon o‘rnak bo‘lgan ota-onalar voyaga yetganda ularning tarbiyasida yuzaga keladigan muammolardan xoli

emaslar [4]. Ma'lumki, pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'z iga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'z aro komponentlardan iborat.

Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashqilotchilik.

Konstruktiv komponenti. O'qituvchining ishida konstruktiv dars katta o'rinnegallaydi, ya'ni sinfdan tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog'liq o'quv materiallarni ta'lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta'lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o'z ifodasini topadi, ya'ni: o'z faoliyatining tartibi va tizimi ta'lim oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi. Ayni vaqtida pedagogik faoliyatning ushbu komponenti mактаб oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o'zlashtirilishi uchun o'quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning faoliyati faol bo'lmasa, chuqur bilim va o'zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qillnishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv darajalari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi,

Tarbiyasi og'ir bolalar - bu rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan, xususan, axloqiy va deviant xulq-atvori, qat'iy salbiy xatti-harakatlari bo'lgan bolalar. Tarbiyasi og'ir - bu

bola, maktab o‘quvchisi bo‘lib, u alohida davolashni, o‘qituvchi va tengdoshlar guruhining diqqatini talab qiladi, bu individual yondashuvni talab qiladi.

Tarbiyasi og‘ir bolalarning mumkin bo‘lgan tasniflari:

1. Pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan bolalar.
2. Tibbiy yordamga muhtoj bolalar.
3. O‘zlashtirmaydigan bolalar.[6]

Ko‘pgina taniqli o‘qituvchilar va psixologlarning xulosalari, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, noto‘g’ri xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning kelib chiqishi mакtab yoshdagi bolalarda kuzatiladigan xatti-harakatlar, o‘yinlar, organish yoki boshqa faoliyatdagi normadan chetga chiqishdir. Delinkventlar va ijobjiy xulqli o`smirlarning oila sharoiti o`rganilganda, delinkventlarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Jinoyatichilikning kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muammosiga bag`ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko`rsatishicha, ikki o`zaro bog`liq omil orasidagi; a) fuksional yoki xulq-atvorga to`g`ridan-to`g`ri (bevosita) ta`sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar va b) bevosita ta`sir qiluvchi, o`zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jabhalarni ajratish mumkin. Ma'lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o`ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o`rin tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga ta`sir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartibintizom tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, delinkventlar va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari o`rganilganda, ota-onaning kayfiyatiga ko`ra, ko`p hollarda qattiqo`llik, jazolash, ota-onalik mehrining —tansiqlligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Biroq bu g`ayri ijtimoiy rivojlanishga sabab bo`luvchi tarbiya usullari haqiqiy baholash mezonini uchun to`liq asos bo`la olmaydi. Tarbiya ta`sirining uzluksizligi, usuli va uning mohiyati atrofdagi ma'lumotlarni umumlashtirib, ayrim yondashuvlarda jazo va rag`bat usullari samarali ekanligi, kuch ishlatishdan ko`ra, kattalik mavqeい kuchi, jismoniy kuch ishlatish yo`li bilan jazolash, tanqid va qo`rqitish, moddiy manfaatlardam mahrum qilish, mehr tanqisligi, jismoniy kuch ishlatmay turib

bolasining xulq-atvori boshqalar uchun keltirishi mumkin bo`lgan zararni xaspo`splash orqali tushuntirish kabilarning quvohi bo`lishi mumkin.

Delinkvent xulqli farzandi bor oila a`zolarining o`zaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilalar ko`proq ko`zga tashlanadi. Longityud tadqiqotchilarining ko`rsatishicha, ota-onalarasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, o`zaro xusumat, shuningdek, mustahkam bo`lmagan nikoh delinkventlar xulqida yoshligidanoq o`z asoratlarini ko`rsatadi. Jinoyatchilarining ota-onalarida jiddiy ijtimoiy nuqsonlar kuzatiladi. Bunday ota-onalar o`z farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam e'tibor beradilar. Ayni vaqtida farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi va hakazo. Ushbu holatlarga sof psixologik nuqtai nazardan e'tibor berilsa, har qanday huquqbazarlik, har qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqin qilinib, unda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va o`ziga xos qonunbazarlik shaklida ifodalanuvchi uning psixik holati, shaxsnинг motivatsion jabhasi, individual-psixologik sifatlari, psixikasining xususiyatlarini, subektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida o`z ifodasini topadi. G.To`laganovaning fikricha, ba`zi hollarda ayblanuvchilar o`z ayblarini bilsalar-da, lekin harakatlarining asl mohiyatini berkitishga yoki oqlashga uringan holda (fazilatli) motivlarni o`zlashtirib olishga harakat qiladilar – bu o`ziga xos psixologik muhofaza mexanizmining bir ko`rinishidir. Shuningdek, jinoyatchilar o`zini-o`zi baholashning ikki jihatni mavjud bo`lib: a) o`zi uchun (—meniga xos), b) o`zgalar va atrofdagilar, shu jumladan odil sudni chalg`itish, jazolash usullarini yumshatish maqsadidagi (ideal —meni uchun) axloqiy-psixologik funksiyani ko`rish mumkin. Qayta tiklangan ehtiyojlarning jinoiy xulq-atvorga o`tishida aniq hayotiy vaziyatning o`rni beqiyosdir. Chunki subekt hayotiy vaziyatdan foydalanishdan harakat qilish bilan birga mavjud —faoliyatning ichki shart-sharoitlarini o`zgartiradi. Biz motivatsiyaning bu jarayonida o`ziga xos uchlikni —ehtiyoj, shaxsiy manfaat-vaziyatni ko`rishimiz mumkin. Bu uchlikning o`zaro uyg`unligida faoliyat motivi —vaziyatga xos rivojlanuvchi motivatsiya tarzida shakllanib boradi. Ushbu holat – kriminogen vaziyat deyiladi. Motivlarning shakllanishida, maqsad qo`yishning psixologik mexanizmlari katta ahamiyatga ega.

Harakat maqsadi motivlar bilan o`zaro solishtirilganda, uning o`z predmetiga egaligi yaqqol ko`zga tashlanishi tufayli farqlanadi. Shaxsning ehtiyojlari, intilishlari, qiziqishlari va motivlari uning faoliyati maqsadlari bir-biriga bog`liqligi bilan uyg`unlashadi. Shunday qilib, jinoiy xulq-atvor mexanizmlari tahlilida quyidagi omillar: subektga xos individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlar, uning dunyoqarashi, qadriyatları, yoshlarning kriminogen vaziyatga tushguniga qadar yashagan ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo`shishga qodir, jismoniy va ma`nan yetuk avlodnikamolga yetkazishda alohida e`tibor qaratilmoqda. Bu ezgu- maqsadlar Prezidentimizning —Farzandlarimiz bizdan ko`ra bilimli, - kuchli, dono va albatta, baxtli bo`lishlari shart! degan so`zlarida mujassamdir. Deviant xulq-atvorning rivojlanishining boshlanishi odatda bolaning ozini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy me`yorlar va qoidalarni qabul qilish yoki rad etish boshlanishiga to`gri keladi. Bunday xulq-atvor ko`nikmalar, tegishli faolyat talablariga bo`ysunish qobiliyati singdirilmagan bola, oxir-oqibat, har xil xatti-harakatlarning buzilishiga moyil bo`lgan intizomsiz shaxsga aylanadi. Bolaning ulg'ayishi va shaxs bolib shakllanishining asosiy davrida unge hamroh bo`lgan oqituvchilar ham o`zlarining kasbiy faolyatida koplab xatolarga yo`l qo`yadilar, bu esa bolaning pedagogik e'tiborsizligiga, deviant xulq-atvoriga, turli xil jtimoiy og'ishlarga olib keladi [5].

O`smirda delinkvent xulq-atvor shakllanishiga oiladagi holatlarning ta'siri:

- ko`pincha to`liq bo`limgan oilalarda hukmon bo`lgan, ajralish holatlarida, bolalar va ota-onalarning alohida bir-biridan uzoqda yashaydigan oilalarda tarbiyaviy ta'sirlarning ziddiyatli uslubi;
- bolaga yagona yondashuv va umumiyl talablar ishlab chiqilmagan, oilada ota-onalar tomonidan tizimsiz tarbiya mavjud emas. Barcha narsaga ruxsat berish yoki tashlab qo`yish, nazoratsizlik yoki ortiqcha nazorat;
- ta`lim va oila ichidagi munosabatlarning nomutanosib uslubi;
- tartibsiz oiladagi munosabatlarning asotsial uslubi.

Bu spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarni muntazam iste'mol qilish va asossiz "oilaviy shafqatsizlik" va oilada jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik, kuch ishlatish; ◦ ota-onalar tomonidan mehr va g'amxo'rlikning sezilarli darajada yetishmasligi (bu o'z navbatida, bola uchun jarohatli kechinmalarni keltirib chiqaradi); ◦ o'tkir psixologik jarohatlarning oqibatlaridan bola o'zi chiqib keta olmaydi (ota-onaning kasalligi yoki o'limi, ajralish, zo'ravonlik); ◦ oiladagi og'ir psixologik muhit, ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar; ◦ jinoiy, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni ko'rsatadigan va buni odatiy hol deb hisoblaydigan kattalar tajribasi.

Psixologik diagnostika — psixolog faoliyatining bir turi bo'lib, u quyidagi vazifalardan iborat:

- o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- delinkvent xatti-harakatlarining sabablarini aniqlash va ularga aniqlik; kiritish;
- ota-onsa va bola munosabatlarining xususiyatlarini o'rganish;
- oila muhiti, o'smirning tengdoshlari guruhidagi shaxslararo munosabatlarining xususiyatlarini tahlil qilish va boshqalar.
- kuzatishlar;
- suhbatlar;
- so'rovnomalar;
- testlar;
- bola faoliyatini tahlil; qilish va boshqalar;

Diagnostika usullari:

- kuzatishlar;
- suhbatlar;
- so'rovnomalar;
- testlar;
- bola faoliyatini tahlil; qilish va boshqalar;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bir guruh tarbiyasi og'ir bolalarni ajratib ko'rsatib, biz ular bilan ishlashni tashkil etishga harakat qilishimiz, jumladan: ota-onalar uchun seminarlar o'tkazish, ularning sabablari tahlil qilinadi, tarbiyasi og'ir

bolalarni tuzatish yo‘llari, ota-onalardagi tanglikni bartaraf etishga qaratilgan maslahat ishlari, ota-onalar bilan individual ishslash. Shuningdek, psixalog va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo‘shtigan o‘yin mashqlaridan foydalanish, nizosiz muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘rganishga qiziqishning namoyon bo‘lishiga, mакtab motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. To‘laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi bo‘yicha tarbiyasi «qiyin» o‘smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatar»-
2. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
3. G’oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o‘smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
4. Раттер М. Помощь трудным детям. - М., 2004.
5. Рожков М. И. Воспитание трудного ребенка. Дети с девиантным поведением. Учебно-методическое пособие. М., ВЛАДОС, 2003.
6. D.Ismailova, L.Gaynudinova, F.Inogamova, G.Yusupova, K.Jo‘rboev “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha psixologlar uchun USLUBIY QO‘LLANMA” TOSHKENT – 2024
7. <https://poisk--ru-ru.turbopages.org/turbo/poisk-ru.ru/s/s42664t3.html>